

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

ABDULLA AVLONIY TA'LIM TIZIMI ASOSCHISI

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilga olinayotgan adib O'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, Abdulla Avloniyning ta'lif tizimi asoschisi sifatida olib borgan fidokorona hizmatlari, uning asarlaridagi yetakchi pedagogik qarashlari va g'oyalarni o'rghanish, tadqiq etish nafaqat dars jarayonining qizg'in o'tishini balki ta'lif sifatini oshishiga qoshgan xizmatlari haqida fikr mulohaza yuritadi.

Kalit so'zlar: Maktab, Abdulla Avloni, Turon teatr turuppasi, jadidchilik harakati, tabiya, ta'lif.

Annotation: This article reflects on the selfless services of one of the great figures of Uzbek literature, Abdulla Avloni, the founder of the educational system, the leading pedagogical views and ideas in his works, the study and research of which contributed not only to the intensive course of the lesson process, but also to the improvement of the quality of education.

Keywords: School, Abdulla Avloni, Turan theater style, Jadid movement, nature, education.

Аннотация: Автор, упомянутый в данной статье, является одним из крупнейших представителей узбекской литературы, самоотверженная деятельность Абдуллы Авлони как основоположника образовательной системы, ведущие педагогические взгляды и идеи в его произведениях, учеба и исследования являются не только интенсивной частью педагогического процесса, размышляет о своем вкладе в улучшение качества образования.

Ключевые слова: школа, Абдулла Авлони, труппа театра «Турэн», революционное движение, природа, образование.

Abdulla Avloniy 1904-yilda jadidchilaridan biri bo'lib, 1909-yilda "Jamiyati hayratiya" tashkilotini tuzgan. 1905—1917-yillarda u o'zining publisistik maqolalari bilan matbuotda faol qatnashib, "o'zgarishlar urug'ini" sochdi. 1907 yilda Avloniy "Shuhrat" gazetasini ochadi. O'qishdan so'ng u pedagogikani o'rganadi hamda yangi maktab tizimini yaratadi shundan so'ng Sharq va G'arb tillarini o'qitishni taklif qildi. Avloniy Turkistondagi maktablarda geografiya, kimyo, astronomiya va fizika fanlarini o'qitishni birinchi bo'lib ta'lif tizimiga kiritdi, o'quvchilar bir sinfdan ikkinchisiga o'tganda imtihonlar kiritdi, shu bilan Turkistonda ta'lifni yangi bosqichga ko'tardi; Avloniy 1895-yilda "Qobil", "Shuhrat", "Hijron", "Avloniy", "Surayyo", "Abulfayz", "Indamas" taxalluslari ostida ijod qilib, ocherk, felyeton, dramatik asarlar yaratdi. Xalqini bilim olishga, ma'rifat olishga da'vat etdi. 1909 yilda jadidchilik uslubida maktab ochadi. Avloniy Behbudiy bilan birgalikda "Turon" truppasini tuzib, "Padarkush" pyesasini sahnalashtiradi. 1917-yilda inqilobdan so'ng "Yashasin xalq jumhuriyati!" shiori ostida "Turon" gazetasini chiqaradi. Avloniy shoir sifatida ko'plab she'rlar yozgan. Uning mashhur "Uz mamlakatimizda", "Maktab" she'rlari xalqni ma'rifatga chorlaydi. Ayniqsa, uning "Adabiyot" kitobi mashhur.

Zamonasining peshqadam ziyorisi bo'lgan A. Avloniy xalqning og'ir ahvoldidan kuyinib, uning qismatini engillashtirish choralarini qidirib, buning dastlabki bosqichi kishilarni bilimli, ma'rifatli qilish, deb tushundi va butun ijtimoiy faoliyatini xalqni ma'naviy-marifiy ongini o'stirish va savodini chiqarish, o'z qadrini bilishi uchun ma'rifatparvarlik g'oyalarini

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON,2025

tarqatishga sarfladi. «Ilm inson uchun g'oyat oliv va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratdan mas'ul bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitur. Ilmning foydasi shu qadar ko'pdirk, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni ilm jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosig'a chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur...», degan xulosaga keladi va Avloniy bunga astoydil ishonadi. «...Har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma'rifatga, hunar va san'atiga bog'liqdur.

«Ilm o'qumak har bir mo'minu eru xotunga farzdur», demishlar. Bizlar na uchun harakat qilmaymiz, qimirlamaymiz. Boshqa millatlarning o'g'ullari, qizlari kecha demay, kunduz demay, qish demay, yoz demay ilm yo'lida jonlarini fido qilub, quvulub, yugurushub, ko'zlarimizni qamashdirub turgan bir zamonda bizlar hamon uyqudan, g'aflatdan boshimizni ko'tarmaymiz, ibrat olmaymiz. Payg'ambarlarimiz: «Olim bo'l, ilm talab qiluvchi bo'l yoki ilmni eshituvchi bo'l. Hech bo'lmasa, shularga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisi bo'lma, haloq bo'lursan» demadilarmu? Topar ilm ila odam o'g'li kamol, Eturmas kamola jamol ila mol. Kerak o'rtanur ilm uchun sham'dek, Tanimiq xudoni ilmsiz maqol...», —deb yoshlarga pandu nasihatlar qilarkan A.Avloniy, navqiron avlodda o'zining «istiqboldan orzular»ini amalga oshiruvchi kuchni ko'rgan edi. Uning fikricha, xoh yigit, xoh qiz bo'lsin — bolaligidanoq ijtimoiy foydali, mustaqil fikr yuritishni o'rgansin. Shuning uchun ham u yoshlarni, Aaziz umrimizni o'yin-kulgi, safsata, maloya'ni kabi behuda so'zlar ila o'tkarmay, har xil kitob, gazeta va jurnallarni o'qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozimdu», — deb ogohlantiradi. A.Avloniy yoshlarning fikriy tarbiyasiga to'xtalar ekan, bu muallimlarning diqqatlariga suyalgan,, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur», — deydi. A.Avloniy bolalarni mustaqil mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ularni adolatparvar, rosggo'y, insonparvar, vijdonli qilib tarbiyalash zarurligiga alohida to'xtalib, «insonning mohiyati vijdonidan bilinur» deydi. Uning fikricha, adolatni odamni doim vijdon harakatga keltirib turadi. Lekin kishi qanchalik adolatli bo'lmasin, yolg'iz o'zi hech bir natijaga erisholmaydi: «Qishi adolat va insoniyat vazifasini yolg'uz o'zi buzuq ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas. Balki, o'zi bilan barobar jinsdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmas va yaxshi yo'lga sa'y qilmak ila ado qila bilur». Nihoyat, A.Avloniy adolatni va insonparvar bo'lishni muhim bir ijtimoiy zaruriyat sifatida talqin qiladi: «Har bir millatning taraqqiy va taoliysi, davlat va hukumatlarning uzun yashamog'i adolatga bog'liqidir. Adolatdan ayrılgan podshohlarning davlatlari yo'q bo'lub, tarix sahifalarida faqat ismlari qolganligi hammaga bilgulidur».

«Til – aloqa vositasi» ekan, «so'z» – insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurg'on tarozusidur» Demak, kishi til vositasida boshqa kishiga «dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini» bir so'z bilan aytganda, o'zining ma'naviy qiyofasini ko'rsatadi. Shuning uchun A.Avloniy og'zaki nutq hamda adabiy til tozaligi masalalariga alohida diqqat-e'tibor bilan qaragan edi. «Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurg'on oinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdurdur». A.Avloniyning «Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kam qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz. Rus lisonin bilmak haet va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o'z erinda ishlatmak va so'zlamak lozimdu. Zigar yog'i solub, mosh-kichiri kabi qilub, aralashquralash qilmak, tilning ruxini buzadur», deb ona tilimizning sofligi to'g'risida behad qayg'urganligini tushunish qiyin emas, albatta Ayniqsa, A.Avloniyning yoshlarimizga ming yildan ortiq tarixga ega bo'lgan boy madaniy merosimizni

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON,2025

va milliy tilni avaylash to'g'risida, «Bobolarimiz etushgan va yaratgan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va oxtarsak, yo'qolganlarini ham topamiz. Yo'qolsa, yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi, deb Ovrupo qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lma zo'r ayb va uyotdir. Umummilliy tilni saqlamak ila barobar xususiy, og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdir», deb xayqirganligini ma'naviy haetimizda ijobiy hodisa ekanligini va ayniqsa, bugngi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini unutmasligimiz kerak, albatta. Ilg'or ma'rifiy-tarbiyaviy va ta'limiy – ahloqiy g'oyalar bilan sug'orilgan «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari yangi usul o'zbek milliy maktablarida asosiy darsliklar qatoridan o'rinn olgan bo'lsa, 1909-1917 yillar oralig'ida «Adabiyot yoxud milliy she'rler» nomli 6 qismdan (I, II, III, IV juzlardan) iborat she'riy to'plamning hamda «Maktab guliston» darsligining nashr etilishi esa bu kitoblarning ijtimoiy-nafis qimmati benihoyat katta ekanlididan va muallifning ezgu maqsad yo'lidagi fidoiyligidan darak beradi, albatta. Bu darsliklarda ifodali o'qishning qator shakllari – ifodali o'qish (individual o'qish), xor bo'lib o'qish, rollarga bo'lib o'qish kabilar beriladiki, bunda bolalarning og'zaki nutqini o'stirish, badiiy so'zlashuvga o'rgatish nazarda tutiladi. Ifodali o'qishning ta'sirchan shakllaridan biri xor bo'lib o'qishga Abdulla Avloniy katta ahamiyat berdi. Shu munosabat bilan u o'z she'rlerini xalq ashulalariga uyg'unlashtirdi va bolalarni xor bo'lib o'qishga o'rgatish uchun alohida she'rler bag'ishladi, masalan, uning barmoq vaznida yozilgan «To'y haqida» she'ri «Reza» kuyiga solib o'qiladi. Bu haqda shoir o'quvchilarga quyidagicha uslubiy ko'rsatmalar beradi: «Reza kuyi – milliy kuylardan biri!»

XULOSA

Ma'lumki, bolalarga ifodali o'qishni o'rgatish adabiy o'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday o'qish adabiy matnni chuqur tushunishga olib boradi. Badiiy asarni chiroyli, ifodali qilib o'qish natijasida asar voqealari o'quvchi ko'zi oldida namoyon bo'ladi. Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e'tibor bergen bo'lsa, tushunib o'qishga va badiiy asarni his qilishga ham shunchalik ko'p diqqat qilgan. Jadidchilikni gazetalar nashr etishdan boshlagan Abdulla Avloniyning eng yaqin maslakdoshi Mirmuhsin Shermuhamedov (1895-1929) ning faoliyati ham alohida diqqat-e'tiborga loyiqidir. U «Tarixiy ikki voqe» maqolasida usuli qadim tarafdorlari – eski maktabdorlarni qattiq tanqid qilib, maktab va madrasalarda o'quv-o'qitish usullarini isloh qilish shiori bilan chiqdi: «Aziz millat bolalarining ranglarin sapsariq qilgan... ochlikdan tishlarin kirini so'rdirgan Buxoro va Xivadagi dahshatlari, qorong'i, zax zindonlar eshigi buzuldi. Maktab va madrasa islohi desa, tishlarini qichirlatib, ko'zlarin olayturadurg'on maorif dushmani – sudrama chopon, jonli tegirmonlar, qozi qalon, qushbegi, oftobachi, tag'in nima balolar ismi ila shuhratlangan Buxoroning miqraboli, endi quvulurlari. Talabalarning yarim umrin to'zon qilib ko'kka uchurgan muqovasi qalin «Sharhi mullo»lar shoyad endi otilib tashlanurlari. Aning o'rniga shoyad yangi qoida ila yozilgan darsliklar o'qulur, ham o'qulur». Murmuhsinning bunday hur fikrlari o'sha davrdagi jamoatchilik fikrini ostin-ustin qilib yubordi. Oqibatda «Turon» gazetasi yopilib,, A.Avloniydan gazeta chiqarmaslik haqida tilxat olingan. Abdulla Avloniyning biz avlodlariga qoldirib ketgan bitmas tunganmas hikmatli so'zlarini pedagogika sohasi bo'yicha judaham ko'p ibratli mehnatlari mavjud. Avloniy ijodini qancha o'rganmaylik undan o'rganishimiz kerak bo'lgan judaham ko'p bilimlar mavjud. Aynan pedagogika sohasi rivojlanishiyu ta'limni rivojiga hissa qo'shgan ushbu adib hali hamon biz ajdodlarining qalbida mangu yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zunnunov, A. Pedagogika tarixi.O'quv qo'llamma. Toshkent- 2004.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON,2025

2. Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. Gafur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti. Toshkent-1979.

3. <https://uz.m.wikipediya.org>

4. <https://elib.buxdupi.uz/books/Abdulla%20Avloniy.pdf>